Annotatsiya. Raqamli transformatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ta'lim klasterlari innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu maqolada ta'lim klasterlarida boshqaruvning zamonaviy muammolari tahlil qilinadi hamda ularni hal etish bo'yicha strategik yechimlar taklif etiladi. Tadqiqotda Triple Helix modeli (universitet–biznes–davlat) asosida klaster ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, ilmiy salohiyatni oshirish va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini kuchaytirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab beriladi. Natijalar ta'lim va biznes o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, raqamli transformatsiya, Triple Helix, boshqaruv, innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, strategik yechimlar.

Abstract. In the era of rapid digital transformation, educational clusters are emerging as one of the key drivers of innovation and competitiveness. This article analyzes modern management challenges within educational clusters and proposes strategic solutions to address them. The study explores the opportunities for collaboration among cluster participants based on the Triple Helix model (university–business–government). Furthermore, it outlines priority areas for innovation commercialization, enhancement of scientific potential, and improvement of cluster economic efficiency. The results contribute to strengthening the integration between education and business, thereby supporting sustainable economic growth.

Key words: educational cluster, digital transformation, Triple Helix, management, innovation, sustainable development, strategic solutions.

Аннотация. В условиях стремительного развития процессов цифровой трансформации образовательные кластеры выступают одним из ключевых факторов инновационного развития и повышения конкурентоспособности. В данной статье анализируются современные проблемы управления в образовательных кластерах и предлагаются стратегические решения по их преодолению. В исследовании рассматриваются возможности взаимодействия участников кластера на основе модели “Тройная спираль” (университет–бизнес–государство). Кроме того, определены приоритетные направления по коммерциализации инноваций, повышению научного потенциала и укреплению экономической эффективности кластеров. Полученные результаты способствуют развитию интеграции между образованием и бизнесом, а также достижению устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: образовательный кластер, цифровая трансформация, Тройная спираль, управление, инновации, устойчивое развитие, стратегические решения.

KIRISH

So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotlarda innovatsion iqtisodiyotga o'tish, milliy innovatsion tizimni shakllantirish va boshqarish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar hamda ular asosidagi ilmiy qarashlar va yondashuvlar sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Mazkur yo'nalishda innovatsion iqtisodiyot uchun bilim yetkazib berish, ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalarini bajarishda aynan oliy ta'lim muassasalariga (OTM) ustuvorlik berilmoqda. Bu jarayonda OTMlarning ilmiy tadqiqot muassasalari hamda davlat bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi iqtisodiyotdagi Triple Helix modelini amalda ifodalaydi.



Shu nuqtayi nazardan, OTMlar yadro bo'lgan ta'lim klasterlari iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim platforma sifatida maydonga chiqmoqda. Klasterlar universitetlar, ilmiy muassasalar, biznes hamjamiyati va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, yangi bilim va texnologiyalarni amaliyotga tezkor joriy etishga xizmat qiladi. Bunda Triple Helix modeli – universitet–biznes–davlat o'zaro hamkorligi – boshqaruvning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda asosiy konseptual yondashuv sifatida qoraladi.

Dastlab Triple Helix modeli (Etzkowitz va Leydesdorff, 2000) universitet–sanoat–hukumat hamkorligi orqali innovatsiyalarni shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida ko'rilgan. Keyinchalik Etzkowitz (2008) tomonidan ilgari surilgan “tadbirkor universitet” konsepsiyasi orqali universitetlarning milliy iqtisodiyotdagi ustuvor roli alohida e'tirof etildi. Ular startaplar, texnoparklar va texnologik transfer markazlari orqali iqtisodiy rivojlanishga faol hissa qo'shishi ta'kidlandi.

Biroq, hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va ekologik chaqiriqlar sharoitida innovatsion tizimlar yanada murakkablashib bormoqda. Bunday sharoitda Karayannis va Campbell (2009, 2010) tomonidan taklif etilgan Quadruple Helix (fuqarolik jamiyatining ishtiroki) va Quintuple Helix (tabiiy muhit va barqaror rivojlanish omillarini inobatga olish) modellari innovatsion ekotizimni yanada to'liq ifodalash imkonini berdi. Zamonaviy sharoitda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta'minlashga ham xizmat qilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, Kai (2022) tomonidan ilgari surilgan Neo-Triple Helix modeli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda ta'lim klasterlari kontekstida boshqaruvning zamonaviy muammolari tahlil qilinadi hamda strategik yechimlar taklif etiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning klasterlar faoliyatiga ta'siri, innovatsion rivojlanishni jadallashtirishdagi imkoniyatlari va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Ushbu tahlil klaster ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Etzkowitz va Leydesdorff tomonidan yozilgan “Innovatsiyalar dinamikasi: milliy tizimlar va 2-rejimdan universitet–sanoat–hukumat o'rtasidagi uch spiral (Triple Helix) munosabatlariga o'tish” nomli maqola “Triple Helix” modelini ilk bor keng ilmiy asoslab bergan asarlardan biridir. Mualliflar universitet–sanoat–hukumat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni innovatsion tizimlarning asosiy drayveri sifatida ko'rsatib berganlar [Etzkowitz & Leydesdorff, 2000].

Etzkowitzning “The Triple Helix” asari esa, ushbu modelning amaliy qo'llanilishini yorituvchi muhim manbadir. Muallif universitetlarning “tadbirkor universitet” sifatidagi roli, startaplar, texnoparklar va innovatsion infratuzilma orqali iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini batafsil tahlil etadi [Etzkowitz, 2008].

Carayannis va Campbell tomonidan yozilgan “3-rejim va To'rt spiral modeli: XXI asrning fraktal innovatsion ekotizimi tomon” nomli maqolada “3-rejim” va “Quadruple Helix” tushunchalari ilgari suriladi. Fuqarolik jamiyati (media, madaniyat, qadriyatlar) to'rtinchi spiral sifatida innovatsion tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi [Carayannis & Campbell, 2009].

Shuningdek, Carayannis va Campbell keyinchalik “Quintuple Helix” modelini ishlab chiqib, unda ekologik barqarorlik va tabiiy muhitni beshinchi spiral sifatida kiritadi. Bu model hozirgi kunda “yashil innovatsiyalar” va barqaror rivojlanish siyosati uchun nazariy asos sifatida qaralib, amaliy jihatdan samarali natijalar berishi mumkin [Carayannis & Campbell, 2010].

Lundvallning “National Systems of Innovation” (“Innovatsiyalarning milliy tizimlari”) nomli asari milliy innovatsion tizim nazariyasining klassik manbasi hisoblanadi. Muallif innovatsiyalarni davlat siyosati, ta'lim va tadqiqot tizimi hamda firmalar o'rtasidagi interaktiv o'rganish jarayoni sifatida talqin etadi [Lundvall, 2010].

Yan iqtisodchi olim Cai esa yuqoridagi modellarni takomillashtirib, “Neo-Triple Helix” modelini ishlab chiqdi. Ushbu modelda Triple, Quadruple va Quintuple Helix yondashuvlari birlashtirilib, “innovatsion genlar” (universitet–sanoat–hukumat hamkorligi), ijtimoiy tuzilmalar va tabiiy muhit o'rtasidagi dialektik aloqalar tahlil etiladi. Bu konsepsiya innovatsion ekotizimni yanada kompleks tushuntirish imkonini beradi [Cai, 2022].

Eng so'nggi nashrlardan biri sifatida Etzkowitz va Leydesdorffning “Innovation and the Triple Helix” (“Innovatsiyalar va Triple Helix”) nomli maqolasi e'tiborga loyiqdir. Mualliflar unda Triple Helix modelini — universitet, sanoat va hukumat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimini — chuqur tahlil qilib, bilimga asoslangan iqtisodiyotda (“knowledge-based economy”) davlat va xususiy sektor o'rtasidagi chegaralarni qayta belgilash zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ilmiy bilim jamiyat boyligi (“public good”) sifatida qoraladi, tadbirkorlik faoliyati esa xususiy foyda olishga yo'naltiriladi. Shu sababli, zamonaviy innovatsion tizimda iqtisodiy siyosat neoliberal “laissez-faire” yondashuviga emas, balki muvozanatli davlat aralashuvi va faol xususiy sektor ishtirokiga asoslanishi lozim. Mualliflar hozirgi sharoitda universitetlarning roli tobora kuchayib borayotganini,



ular nafaqat bilim ishlab chiqaruvchi tuzilma, balki iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri ekanini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, hukumatning vazifasi — institutsional muvofiqlashtirish va sohaga tizimli qo'llab-quvvatlovchi sharoit yaratishdan iborat. Bu nuqtayi nazardan Triple Helix modeli barqaror innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhim konseptual asos sifatida e'tirof etiladi [Etzkowitz & Leydesdorff, 2025].

Ushbu adabiyotlar bir-birini to'ldirib, innovatsion tizimlarning evolyutsiyasi — Triple Helixdan Neo-Triple Helixgacha bo'lgan ilmiy rivojlanish jarayonini ochib beradi. Dastlab universitet–sanoat–hukumat uchligi asosiy mexanizm sifatida qaralgan bo'lsa, jamiyatlarning bilimga asoslangan shaklga o'tishi va yashil iqtisodiyot siyosatining keng qo'llanilishi natijasida ushbu model fuqarolik jamiyati hamda ekologik omillarni o'z ichiga olgan, yanada barqaror va inkluziv innovatsion yondashuvga ega shaklga kelgan (1-jadval).

1-jadval. Universitet–sanoat–hukumat uchligi bo'yicha yondashuvlar

№	Mualliflar	Asosiy g'oya	Yondashuvning amaliy ahamiyati
1	Etzkowitz & Leydesdorff (2000)	“Triple Helix” modeli - universitet–sanoat–hukumat hamkorligi innovatsiyaning asosiy drayveri sifatida	Mazkur model innovatsion siyosat va ilm-fan, biznes, davlat hamkorlik loyihalarini tushuntirish uchun konseptual asos yaratib bergan
2	Etzkowitz (2008)	“Tadbirkor universitet” tushunchasi, texnopark va startaplar orqali iqtisodiy rivojlanish	Universitetlarning innovatsion ekotizimdagi faol rolini mustahkamlash, spin-off kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat
3	Carayannis & Campbell (2009)	“Mode 3” va “Quadruple Helix” - fuqarolik jamiyati va madaniyatni innovatsion tizimga qo'shish	Jamiyatni innovatsiyaga jalb etish, ijtimoiy hamkorlik va shaffoflikni oshirish
4	Carayannis & Campbell (2010)	“Quintuple Helix” - ekologik barqarorlik va tabiiy muhitni innovatsion tizim tarkibiga qo'shish	Yashil texnologiyalar, ekologik siyosat va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llaniladi
5	Ranga & Etzkowitz (2013)	“Triple Helix” tizimini tahlil qilish uchun tahliliy model yaratish	Innovatsion siyosatni baholash, universitet–biznes–davlat o'rtasidagi muvozanatni o'rganishni takomillashtirish
6	Schütz et al. (2019)	“Quadruple Helix” tizimida jamiyat ishtirokini tadqiq qilish	Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berish
7	Carayannis, Barth & Campbell (2012)	“Quintuple Helix” – iqlim o'zgarishi innovatsiyalar uchun drayver sifatida	Barqaror rivojlanish siyosati, ekologik innovatsiyalarni yaratish va qo'llash
8	Lundvall (2010)	Milliy innovatsion tizim nazariyasi - davlat, ta'lim va tadqiqot tizimining integratsiyasi	Milliy innovatsion siyosatni ishlab chiqishda asosiy nazariy manba sifatida qo'llanilishi
9	OECD (2022)	SDG'lar uchun innovatsion siyosat – ko'rsatkichlar va amaliy misollar	Davlatlarga innovatsion siyosatni barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirishda yordam berishdan iborat
10	Cai (2022)	“Neo-Triple Helix” - Triple, Quadruple va Quintuple Helix modellarini birlashtirish	Innovatsion ekotizimlarni kompleks tahlil qilish va siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yangi yondashuv
11	Etzkowitz & Leydesdorff (2025)	Innovatsiya dinamikasi va davlat–xususiy chegaraning qayta talqini - bilim ommaviy tovar bo'lsa-da, tadbirkorlik xususiy foyda sharoitini talab qilishi	Neoliberal yondashuvdan farqli ravishda, davlatning muvofiqlashtiruvchi roli va universitetning kuchaytirilgan pozitsiyasi orqali innovatsion ekotizimning barqarorligini ta'minlash

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ta'lim klasterlaridagi boshqaruv muammolarini tahlil qilish va strategik yechimlarni ishlab chiqish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari hamda sohadagi ilg'or tajribalar o'rganildi. Ikkinchi bosqichda Triple Helix modeli asosida universitet, biznes va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari tizimli tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuv

1 SDG – Sustainable development goals – Barqaror rivojlanish maqsadlari.



klaster boshqaruvidagi dolzarb muammolarni tizimli ravishda aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Triple Helix” modeli — bu universitet, biznes (sanoat) va davlat o'rtasidagi hamkorlikni izchil rivojlantirishga qaratilgan innovatsion konseptual yondashuvdir. Mazkur modelni 1990-yillar boshida amerikalik olim Henry Etzkowitz va niderlandiyalik olim Loet Leydesdorff ishlab chiqqanlar. Ularning asosiy g'oyasi shundan iboratki, innovatsion rivojlanish faqat bir tomonlama — masalan, davlat yoki bozor tomonidan boshqarilmasligi kerak. Aksincha, uchta asosiy “spiral” — universitet – sanoat – davlat o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi orqali barqaror va samarali natijalarga erishish mumkin.

Mazkur modelning asosiy tamoyillariga ko'ra, universitetning yangi roli faqat ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsiyalarni yaratish va ularni tijoratlashtirishda faol ishtirok etishdan iborat. Biznesning yangi roli esa nafaqat ishlab chiqarish bilan, balki ilmiy tadqiqotlarga investitsiya kiritish, innovatsion ekotizimni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq. Davlatning yangi roli esa tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi institut sifatida klaster hamkorligini rag'batlantirish, innovatsion siyosatni ishlab chiqish va ularning samarali ijrosini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak.

Mazkur sharoitda universitetlar ta'lim klasterining yadrosi sifatida biznes va davlat bilan teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'yishi, yangi bilimlarni yaratish, takomillashtirish va tijoratlashtirish orqali mamlakatda innovatsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi yirik institutsional tuzilma sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiqdir.

Etzkowitzning fikriga ko'ra, “Triple Helix” modeli natijasida milliy iqtisodiyotda innovatsion ekotizim shakllanadi, bu esa iqtisodiy o'sish, texnologik taraqqiyot, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholi farovonligining oshishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Vaqt o'tishi bilan ilmiy hamjamiyat “Triple Helix” modelini kengaytirish zarurligini ta'kidlab, unga to'ldiruvchi sifatida to'rtinchi spiral – “Quadruple Helix” modelini taklif etdi. Ushbu yondashuvda jamiyat, jamoatchilik fikri va tashabbuslari innovatsion tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Endilikda innovatsion jarayonlarda nafaqat uchta asosiy institut, balki iste'molchilar, nodavlat va notijorat tashkilotlar (NNT), jamoatchilik fikri, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar ham faol ishtirok etadi. Bu yondashuv innovatsiyalarni ijtimoiy yo'naltirilgan shaklda rivojlantirish va aholi ehtiyojlariga moslashtirish imkonini yaratadi.

Jamiyatlarning yanada takomillashib borishi, global raqobatning kuchayishi hamda atrof-muhitga bo'lgan munosabatning o'zgarishi natijasida ilmiy adabiyotlarda “Quintuple Helix” modeli shakllandi. U “Quadruple Helix” modeliga qo'shimcha ravishda atrof-muhit va barqarorlik spiralini kiritdi. Bu model innovatsiyalarni ishlab chiqishda barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)ni inobatga olish, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik va iqlim o'zgarishiga moslashuvni asosiy tamoyil sifatida belgilab beradi (2-jadval).

2-jadval. “Triple, Quadruple va Quintuple Helix” modellari amalda

Model	Spiral elementlari	Asosiy maqsad	O'zbekiston ta'lim klasterlari misolida
Triple Helix	Universitet – biznes – davlat	Innovatsion ekotizim va texnologik rivojlanish	Toshkent IT Park, INHA, TATU talabalarini startap loyihalarga jalb qilish, davlat tomonidan grantlar va soliqlarda imtiyoz berish
Quadruple Helix	Universitet – biznes – davlat – jamiyat	Innovatsiyalarni ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish	TIQXMMI MTU, Turin politexnika universiteti suv ta'minoti, transport va energiya samaradorligi bo'yicha mahalliy aholi bilan ishlovchi talabalar loyihalari
Quintuple Helix	Universitet – biznes – davlat – jamiyat – ekologiya	Barqaror rivojlanish va yashil innovatsiyalarni rag'batlantirish	“Yashil energiya kampuslari” — oliy ta'lim muassasalari, Energetika vazirligi va biznes vakillari hamkorligida ekologik startaplar masalan, chiqindidan bioyoqilg'i ishlab chiqarish loyihalari

Mazkur uch modelning evolyutsiyasi bugungi kunda innovatsion siyosat va klaster strategiyalarining asosiy nazariy tayanchi hisoblanadi. Agar Triple Helix modeli asosan universitet–biznes–davlat hamkorligini



kuchaytirishga qaratilgan bo'lsa, keyingi ikki modelda innovatsiyalar ijtimoiy va ekologik masalalar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu yondashuv raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish maqsadlarini birlashtirishga xizmat qiladi.

1. "Triple Helix" modeli doirasidagi ta'lim klasterlari strategiyasi

Ta'lim klasterlari uchun universitet–biznes–davlat uchburchagini asosiy innovatsion kuch sifatida qaraydigan Triple Helix modeli quyidagi strategiyalarni taklif etadi:

— Universitetlarning rolini kengaytirish: universitetlarni faqat bilim beruvchi tuzilma emas, balki startaplarni qo'llab-quvvatlovchi, texnologik transfer markazlari va tadbirkorlik inkubatorlarini rivojlantiruvchi markazga aylantirish;

— Biznes bilan hamkorlikni kuchaytirish: kompaniyalar bilan qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, talabalar uchun "dual education" dasturlarini joriy etish;

— Davlat siyosatini uyg'unlashtirish: ta'lim klasterlari uchun soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar ajratish orqali innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida milliy iqtisodiyotda bilim, texnologiya va investitsiyalar oqimi muvofiqlashtiriladi, bu esa ta'lim klasterlarini iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlariga aylantiradi.

2. "Quadruple Helix" modeli doirasida ta'lim klasterlari uchun yechimlar

Quadruple Helix modeli jamiyatni ham innovatsion jarayonlarga jalb etish orqali ta'lim klasterlariga quyidagi yechimlarni taklif etadi:

— Fuqarolik jamiyatini jalb qilish: ota-onalar, talabalar uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) va mahalliy jamoatchilikni ta'lim klasteri boshqaruv kengashlariga kiritish;

— Axborot ochiqligi va shaffoflikni ta'minlash: klaster natijalari va innovatsion loyihalar bo'yicha ochiq ma'lumotlar portalini yaratish;

— Madaniyat va ijodkorlikni rag'batlantirish: STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvini joriy etish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish.

Natijada, Quadruple Helix modeli asosida ta'lim klasterlarining faoliyati jamoatchilik ehtiyojlariga moslashadi, ijtimoiy ishonch mustahkamlanadi va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kuchayadi.

3. "Quintuple Helix" modeli doirasida ekologiya va barqarorlik strategiyalari

Quintuple Helix modeli ekologiya va barqarorlikni innovatsion tizimning ajralmas spiraliga aylantirib, ta'lim klasterlari uchun quyidagi strategiyalarni belgilaydi:

— Yashil ta'lim dasturlarini joriy etish: ekologik menejment, "yashil iqtisodiyot" va "barqaror rivojlanish" fanlarini o'quv rejalari tarkibiga kiritish;

— Atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslari: klaster hududlarida yashil kampuslar tashkil etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish;

— Barqaror rivojlanish maqsadlarini integratsiya qilish: BMTning SDG 4 (Sifatli ta'lim) va SDG 9 (Sanoat, innovatsiya va infratuzilma) maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan strategik rejalar ishlab chiqish.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida ta'lim klasterlari nafaqat innovatsion, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli barqaror rivojlanish markazlariga aylanadi.

4. "Neo-Triple Helix" modelining shakllanishi va ilmiy asoslari

Milliy innovatsion ekotizimlarning shakllanishi va takomillashuvi jarayonida olim Yuzhuo Cai tomonidan "Neo-Triple Helix" modeli taklif etildi [Cai, 2022]. Ushbu model Triple Helix (universitet–sanoat–hukumat), Quadruple Helix (fuqarolik jamiyati) va Quintuple Helix (tabiiy muhit) yondashuvlarini integratsiyalashga asoslanadi. Muallif bu modelni Levontinning "gen – organizm – muhit" metaforasi bilan uyg'unlashtiradi [Lewontin, 2000].

Model quyidagi uch asosiy element o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ifodalaydi:

Innovatsion dinamikalar (innovatsion genlar) — universitet, sanoat va hukumat o'rtasidagi hamkorlik natijasida shakllanadigan innovatsion jarayonlar.

Ijtimoiy tuzilmalar — innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan jamiyat va institutlar tizimi.

Tabiiy muhit — barqaror rivojlanish, ekologiya va resurslar bilan bog'liq omillar.

"Neo-Triple Helix" modeli ikki darajadagi yondashuvni taklif etadi:

— Gen darajasi — universitet, sanoat va hukumatning o'zaro hamkorligi;

— Tizim darajasi — innovatsion genlar, ijtimoiy tuzilmalar va tabiiy muhitning o'zaro ta'siri.

Cai innovatsion jarayonlarni neo-institutsional va neo-evolyutsion yondashuvlar orqali izohlaydi hamda Quadruple va Quintuple Helix modellarini ijtimoiy va ekologik omillarni qo'shgan holda kengaytiradi.

Natijada, ushbu model mavjud ilmiy bahslarni aniqlashtirib, innovatsion ekotizimlarda sinergetik yondashuvni kuchaytiradi, empirik tadqiqotlar va innovatsion siyosat ishlab chiqishda amaliy yo'l-yo'riq sifatida qo'llanilishi mumkin. "Neo-Triple Helix" modeli innovatsiyalarni faqat universitet–sanoat–hukumat hamkorligi darajasida emas, balki fuqarolik jamiyati va ekologik barqarorlikni inobatga olgan murakkab va barqaror tizim sifatida tushuntiradi (3-jadval).



3-jadval. “Neo-Triple Helix” modeli amalda

Model elementi	O'zbekistonda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar	Kutilgan natija
1. Innovatsion dinamikalar (innovatsion genlar)	universitetlarda texnoparklar va startap inkubatorlarini kengaytirish; fan–ishlab chiqarish integratsiyasi dasturini kengaytirish orqali qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish; innovatsion korxonalar uchun 3–5 yillik soliq imtiyozlari joriy etish; yoshlarga startap grantlari ajratish va venchur kapital fondlarini tashkil etish.	Universitet–sanoat–hukumat o'rtasida barqaror innovatsion hamkorlik shakllanadi. G'oyalar tezda tijoratlashtiriladi, yangi texnologiyalar yaratiladi.
2. Ijtimoiy tuzilmalar (institutsional tizimlar)	milliy innovatsiya tizimi konsepsiyasini amalda yo'lga qo'yish; har bir viloyatda mintaqaviy “Innovation Hub”larni tashkil etish; ta'lim tizimida innovatsion madaniyatni rivojlantirish (ilmiy grantlar, loyiha asosidagi ta'lim); xususiy sektor uchun ilmiy-tadqiqot bo'yicha soliq chegirmalari va davlat hamkorligi dasturlari joriy etish.	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan barqaror institutsional muhit yaratiladi. Innovatsion siyosat, qonunchilik va moliyaviy mexanizmlar o'zaro bog'lanadi.
3. Tabiiy muhit (barqaror rivojlanish va ekologiya)	“Yashil iqtisodiyot” milliy strategiyasini amalda keng tatbiq etish; universitetlarda “Green Campus” loyihalarini joriy etish (energiya tejash, chiqindilarni qayta ishlash); “Ekoinnovatsiya” fondi tashkil etish – ekologik startaplar va “yashil texnologiyalar”ni moliyalashtirish; qayta tiklanuvchi energiya (quyosh, shamol) bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.	Ekologik barqaror innovatsion ekotizim shakllanadi. Yashil energiya, resurs tejash va ekologik xavfsizlik iqtisodiy rivojlanish bilan uyg'unlashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim klasterlarida boshqaruvning zamonaviy muammolari asosan raqamli transformatsiya jarayonlariga moslashish, innovatsiyalarni tezkor tijoratlashtirish hamda klaster ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq. Triple Helix modeli bu jarayonda konseptual asos vazifasini bajarib, universitet–biznes–davlat uchburchagidagi integratsiyani kuchaytiradi.

Strategik yechimlar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- raqamli kompetensiyalarni oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- ta'lim va ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish bo'yicha inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini yaratish;
- davlat–xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish;
- sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda keng foydalanish.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish ta'lim klasterlarining innovatsion salohiyatini oshiradi, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: From National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of university–industry–government relations. *Research Policy*, 29(2), 109–123. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00055-4](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4)
2. Etzkowitz, H. (2008). *The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation in Action*. Routledge. ISBN: 978-0-415-26091-9. 164 p.
3. Carayannis, E. G., & Campbell, D. F. J. (2009). ‘Mode 3’ and ‘Quadruple Helix’: Toward a 21st Century Fractal Innovation Ecosystem. *International Journal of Technology Management*, 46(3/4), 201–234. <https://doi.org/10.1504/IJTM.2009.023374>
4. Carayannis, E. G., & Campbell, D. F. J. (2010). Triple Helix, Quadruple Helix and Quintuple Helix and How Do Knowledge, Innovation and Environment Relate To Each Other?. *International Journal of Social Ecology and Sustainable Development*, 1(1), 41–69. <https://doi.org/10.4018/jsesd.2010010105>
5. Ranga, M., & Etzkowitz, H. (2013). Triple Helix systems: An analytical framework for innovation policy and practice in the Knowledge Society. *Industry and Higher Education*, 27(3), 237–262. <https://doi.org/10.5367/ihe.2013.0165>
6. Schütz, F., Heidingsfelder, M. L., & Schraudner, M. (2019). Co-shaping the Future in Quadruple Helix Innovation Systems: Uncovering Public Preferences toward Participatory Research and Innovation. *She Ji: The Journal of Design, Economics, and Innovation*, 5(2), 128–146. <https://doi.org/10.1016/j.sheji.2019.04.002>
7. Carayannis, E. G., Barth, T. D., & Campbell, D. F. J. (2012). The Quintuple Helix innovation model: global warming as a challenge and driver for innovation. *Journal of Innovation and Entrepreneurship*, 1(2), 1–12. <https://doi.org/10.1186/2192-5372-1-2>
8. Lundvall, B.-Å. (2010). *National Systems of Innovation: Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning*. Anthem Press. ISBN: 978-0-85728-674-1. 404 p.



9. OECD. (2022). Innovation Policy for the Sustainable Development Goals. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264285592-en>
10. Cai, Y.(2022) Neo-Triple Helix Model of Innovation Ecosystems: Integrating Triple, Quadruple and Quintuple Helix Models / Yuzhuo Cai // Triple Helix. – 2022. – Vol. 9. – P. 297–326. <https://doi.org/10.1163/21971927-bja10023>
11. Lewontin, R. C. (2000). The Triple Helix: Gene, Organism, and Environment. Cambridge, MA: Harvard University Press. ISBN: 978-0-674-00788-3. 136 p.
12. Etzkowitz, H., Leydesdorff, L. Innovation and the Triple Helix. Scientometrics 130, 3279–3291 (2025). <https://doi.org/10.1007/s11192-025-05337-8>

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>